



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TASHQI SAVDO AYLANMASI

*2024- yil yanvar- sentabr oylari
uchun dastlabki ma’lumot*

*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi boshqarmasi:
(71) 202-80-44(45)*



TASHQI SAVDO AYLANMASI

Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Respublikada bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, 2024- yil yanvar-sentabr oylarida respublikaning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 48,2 mlrd AQSH dollariga yetdi va 2023- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 3,5 mlrd AQSH dollariga yoki 7,7 % ga ko'paydi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2024- yil yanvar -sentabr, mln AQSH dollari)

Tashqi savdo aylanmasi

2024- y.: **48 206,2** (+7,7 %)

(2023- y.: **44 754,1**)



Saldo

2024- y.: **-8 658,6** (2023- y.: **-9 275,4**)



Eksport

2024- y.: **19 773,8** (+11,5 %)

(2023- y.: **17 739,4**)




Import

2024- y.: **28 432,4** (+5,2 %)

(2023- y.: **27 014,8**)

TSA'dagi ulushi



TSAda eksport hajmi 19 773,8 mln AQSH dollariga (2023- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 11,5 % ga ko'paydi) va import hajmi 28 432,4 mln AQSH dollariga (5,2 % ga ko'paydi) yetdi. Hisobot davrida – 8 658,6 mln AQSH dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.












O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR

(2024- yil yanvar-sentabr, mln AQSH dollari)

Ta'kidlash joizki, Qozog'iston O'zbekistonning eng yirik tashqi iqtisodiy hamkorlaridan biriga aylandi (Xitoy va Rossiyadan keyin). Bunga sabab quyidagilar bo'lishi mumkin: umumiy chegaraning mavjudligi, MDHning erkin savdo hududida savdo qilishi hamda so'nggi paytlarda o'zaro iqtisodiy aloqalarning keskin erkinlashtirilishi.

O'zbekiston Respublikasi jahonning 190 mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi XXRda (18,7 %), Rossiyada (18,0 %), Qozog'istonda (6,2 %), Turkiyada (4,5 %) va Koreya Respublikasida (3,1 %) qayd etilgan.

<p>XXR</p> <p>TSA – 9 034,1</p> <p>Eksport: 1 528,3 Import: 7 505,9</p> <p> 18,7 %</p>	<p>Rossiya</p> <p>TSA – 8 664,4</p> <p>Eksport: 2 769,7 Import: 5 894,7</p> <p> 18,0 %</p>	<p>Qozog'iston</p> <p>TSA – 3 010,1</p> <p>Eksport: 997,7 Import: 2 012,3</p> <p> 6,2 %</p>	<p>Turkiya</p> <p>TSA – 2 179,2</p> <p>Eksport: 845,8 Import: 1 333,4</p> <p> 4,5 %</p>	<p>Koreya Respublikasi</p> <p>TSA – 1 476,8</p> <p>Eksport: 27,4 Import: 1 449,3</p> <p> 3,1 %</p>
<p>Turkmaniston</p> <p>TSA – 867,8</p> <p>Eksport: 87,2 Import: 780,6</p> <p> 1,8 %</p>	<p>Fransiya</p> <p>TSA – 859,4</p> <p>Eksport: 588,5 Import: 270,8</p> <p> 1,8 %</p>	<p>Germaniya</p> <p>TSA 856,9</p> <p>Eksport: 63,1 Import: 793,9</p> <p> 1,8 %</p>	<p>Afg'oniston</p> <p>TSA – 762,1</p> <p>Eksport: 739,5 Import: 22,6</p> <p> 1,6 %</p>	<p>AQSH</p> <p>TSA – 672,2</p> <p>Eksport: 238,4 Import: 433,8</p> <p> 1,4 %</p>



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI


(yanvar-sentabr, mln AQSH dollari)

Davlatlar	2022- y.	2023- y.	2024- y.
 XXR	6 957,6	9 454,9	9 034,1
<i>Eksport</i>	2 164,1	1 855,5	1 528,3
<i>Import</i>	4 793,5	7 599,5	7 505,9
 Rossiya	6 656,1	7 034,5	8 664,4
<i>Eksport</i>	2 215,7	2 326,6	2 769,7
<i>Import</i>	4 440,4	4 707,9	5 894,7
 Qozog'iston	3 276,9	3 229,8	3 010,1
<i>Eksport</i>	1 012,6	1 067,0	997,7
<i>Import</i>	2 264,3	2 162,8	2 012,3
 Turkiya	2 531,4	2 350,5	2 179,2
<i>Eksport</i>	1 270,1	1 016,4	845,8
<i>Import</i>	1 261,3	1 334,1	1 333,4
 Koreya Respublikasi	1 817,6	1 699,1	1 476,8
<i>Eksport</i>	29,8	32,7	27,4
<i>Import</i>	1 787,8	1 666,4	1 449,3
 Turkmaniston	769,5	830,3	867,8
<i>Eksport</i>	154,9	129,4	87,2
<i>Import</i>	614,6	700,9	780,6
 Fransiya	232,1	658,8	859,4
<i>Eksport</i>	69,4	307,6	588,5
<i>Import</i>	162,7	351,2	270,8
 Germaniya	789,3	784,2	856,9
<i>Eksport</i>	75,2	61,0	63,1
<i>Import</i>	714,1	723,2	793,9
 Afg'oniston	523,7	615,3	762,1
<i>Eksport</i>	517,4	608,7	739,5
<i>Import</i>	6,3	6,6	22,6
 AQSH	336,5	441,6	672,2
<i>Eksport</i>	47,1	101,6	238,4
<i>Import</i>	289,5	340,0	433,8

Davlatlar	2022- y.	2023- y.	2024- y.
Hindiston	502,8	507,8	671,8
<i>Eksport</i>	27,1	76,4	87,1
<i>Import</i>	475,7	431,4	584,7
Qirg'iz Respublikasi	886,8	753,8	587,5
<i>Eksport</i>	702,9	537,4	403,0
<i>Import</i>	183,9	216,3	184,5
Belarus	363,6	449,5	507,2
<i>Eksport</i>	80,2	101,5	119,7
<i>Import</i>	283,3	348,0	387,5
Litva	368,8	510,6	492,9
<i>Eksport</i>	67,7	98,7	151,4
<i>Import</i>	301,0	411,9	341,4
Tojikiston	473,9	545,4	486,2
<i>Eksport</i>	352,9	437,0	371,4
<i>Import</i>	120,9	108,4	114,8
BAA	337,8	475,8	472,2
<i>Eksport</i>	79,4	191,1	179,9
<i>Import</i>	258,3	284,7	292,3
Braziliya	402,3	553,6	384,4
<i>Eksport</i>	0,9	2,0	7,7
<i>Import</i>	401,3	551,7	376,8
Eron	344,1	378,4	359,2
<i>Eksport</i>	122,7	133,7	121,7
<i>Import</i>	221,4	244,6	237,5
Chexiya	116,8	280,9	353,6
<i>Eksport</i>	21,8	39,8	43,8
<i>Import</i>	95,0	241,1	309,8
Pokiston	201,0	283,4	311,2
<i>Eksport</i>	118,6	186,2	228,4
<i>Import</i>	82,5	97,1	82,7

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI*

(2024- yil yanvar-sentabr, mln AQSH doll.)




Respublika tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Toshkent shahri 38,8 % ulush bilan 18 694,1 mln AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Surxondaryo viloyati 0,6 % ulush bilan 301,4 mln AQSH dollarini tashkil etdi.

* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, shaharlar va tumanlari bo'yicha taqsimlanmagan

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-sentabr, ulushi % da, hajmi mln AQSH dollarida)



2024-yil yanvar-sentabr oyida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 34,9 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2023 - yilning mos davriga nisbatan 1,5 % ga ko'paydi.

O'zbekiston bilan savdo qilayotgan mamlakatlar iqtisodiyoti o'sishi mazkur mamlakatlar iste'molchilari tomonidan respublika eksportiga bo'lgan talabning oshishiga olib kelishi mumkin.

O'zbekistonning boshqa xorijiy davlatlar bilan TSAsi 2024- yilning yanvar - sentabr oylarida 2023- yilning mos davriga nisbatan 1,5 % ga kamaydi va jami TSAdagi ulushi 65,1 % ni tashkil etdi.

O'zbekistonning MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2024- yil yanvar-sentabr holatiga ko'ra, 16 842,0 mln AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport 6 601,7 mln. AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import 10 240,3 mln AQSH dollari qiymatida qayd etildi.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING MDH MAMLAKATLARI BILAN UMUMIY TASHQI SAVDO AYLANMASIDAGI ULUSHI (2024- yil yanvar-sentabr, ulushi, % da)

Rossiya – 51,4



Qozog'iston – 17,9



Turkmaniston – 5,2



Qirg'iz Respublikasi – 3,5



Belarus – 3,0



Tojikiston – 2,9



Ozarbayjon – 1,1



Ukraina – 0,9



Armaniston – 0,1




Moldova – 0,1



MDHning erkin savdo hududida savdo qilish O'zbekistonning umumiy tashqi savdo aylanmasiga ijobiy tas'ir qilmoqda.

O'zbekistonning MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi eng yuqori hajmlari Rossiya (51,4 %), Qozog'iston (17,9 %) hamda Turkmaniston (5,2 %) davlatlari bilan qayd etildi.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING YEOIIGA A‘ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI (2024- yil yanvar-sentabr, mln AQSH dollari)



O‘zbekistonning Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a‘zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi 12 787,8 mln AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport hajmi 4 303,4 mln AQSH dollari, import hajmi esa 8 484,4 mln AQSH dollariga yetdi.

Shuni takidlash lozimki, YEOIning a‘zo davlatlari (Rossiya, Belarus, Qozog‘iston, Armaniston va Qirg‘iz Respublikasi) o‘rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta‘minlangan bo‘lib, yagona bojxona tizimiga ega bo‘lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.

Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida, eksportyorlar soni 6710 taga yetdi va ular tomonidan 13 980,6 mln AQSH dollari (*nomonetar oltindan tashqari*) qiymatidagi (2023-yilning mos davriga nisbatan 15,5 % ga ko'paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.



XSST* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI

(2024- yil yanvar-sentabr)



*Tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (TIF TN) bilan birgalikda, BMTning Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlar XSST bo'yicha kodlashirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING XSST BO‘YICHA EKSPORTI TARKIBI *(yanvar-sentabr, yillar kesimida)*

XSST tarkibi	Mln AQSH dollari		O‘zgarish sur‘ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Jami eksport	17 739,4	19 773,8	123,5	111,5	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	1 287,7	1450,9	119,3	112,7	7,3	7,3
Ichimliklar va tamaki	89,6	97,6	116,0	108,9	0,5	0,5
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari	228,7	237,2	79,7	103,7	1,3	1,2
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar	679,1	1020,1	70,1	150,2	3,8	5,2
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	8,2	27,6	40,6	337,8	0,05	0,1
Kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar	974,3	1225,8	100,0	125,8	5,5	6,2
Sanoat tovarlari	3 070,0	3184,4	91,5	103,7	17,3	16,1
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	943,2	884,3	143,8	93,8	5,3	4,5
Turli xil tayyor buyumlar	922,0	800,0	120,0	86,8	5,2	4,0
Boshqa tovarlar	5 668,1	5 831,9	190,0	102,9	32,0	29,5
<i>shu jumladan: nomonetar oltin</i>	<i>5 637,5</i>	<i>5 793,2</i>	<i>189,8</i>	<i>102,8</i>	<i>31,8</i>	<i>29,3</i>
Xizmatlar	3 868,4	5014,1	121,0	129,6	21,8	25,4

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 74,6 % ni tashkil etib, ular boshqa tovarlar (29,5 %), sanoat tovarlari (16,1 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (7,3 %) va kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar (6,2 %) hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING XSST BO‘YICHA EKSPORTI
TARKIBI (2024- yil yanvar-sentabr)

 XSST bo‘limi nomi	Mln AQSH dollari	2023- yilning mos davriga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	1 450,9	112,7
Sabzavotlar va mevalar	1 061,7	125,7
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	262,2	71,1
Go‘sh t va go‘sh t mahsulotlari	34,7	15,6 m.
Sut mahsulotlari va qush tuxumlari	29,6	2,6 m.
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	18,2	92,1
Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari)	18,1	88,9
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	11,5	113,5
Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	7,6	135,6
Tirik hayvonlar	6,0	136,2
Baliq (dengiz sutemizuvchilari bo‘lmagan), qisqichbaqasimonlar, mollyuskalar va suvda suzuvchi umurtqasizlar va yarim tayyor mahsulotlar	1,2	123,5
Ichimliklar va tamaki	97,6	108,9
Tamaki va tamaki mahsulotlari	58,4	148,6
Ichimliklar	39,2	78,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari	237,2	103,7
To‘qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	93,6	101,3
Hayvonlar va o‘simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	55,0	141,3
Metall rudalari va metall parchalari	26,4	70,9
Qog‘oz massasi va makulatura	24,4	78,5
O‘g‘itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo	22,6	115,7
Moy olinadigan urug‘lar va moy olinadigan mevalar	12,9	2,1 m.
Tabiiy kauchuk	1,6	2,7 m.
Probka va yog‘och-taxtalar	0,8	28,1
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar	1 020,1	150,2
Tabiiy yoki sun‘iy gaz	479,5	116,5
Neft va neft mahsulotlari va shunga o‘xshash materiallar	464,1	2,1 m.
Elektr toki	74,0	149,9
Ko‘mir, koks va briketlar	2,4	6,8 m.
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	27,6	337,8
O‘simlik moylari va yog‘lari, xom, tozalangan yoki fraksiyalangan	27,5	3,4 m.
Hayvonlar va o‘simliklar moylari va yog‘lari, qayta ishlangan	0,1	63,7
Kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar	1 225,8	125,8
Noorganik kimyo moddalari	682,4	170,3
O‘g‘itlar	241,1	98,7
Birlamchi shakldagi plastmassalar	175,0	93,9
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	36,9	62,2
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	26,4	100,0
Bo‘yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo‘yoqlar	18,8	116,2
Birlamchi shaklda bo‘lmagan plastmassalar	18,4	134,1
Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari	15,3	84,1
Organik kimyo moddalari	11,5	124,6


XSST bo'limi nomi	MIn AQSH dollari	2023- yilning mos davriga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari	3 184,4	103,7
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	1 521,7	97,0
Rangli metallar	1 135,2	111,6
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	161,8	134,6
Cho'yan va po'lat	155,6	96,7
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	112,0	112,0
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, yoki tayyorlangan buyumlar	37,1	68,3
Teri, teridan tayyorlangan buyumlar, mo'yna	31,0	98,1
Rezina buyumlari, boshqa joyda tasniflanmagan	16,1	167,3
Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	13,9	164,7
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	884,3	93,8
Avtomobillar (havo yostiqchalaridagi transport vositalari ham)	289,0	81,5
<i>shu jumladan: avtomobillarning qismlari va anjomlari</i>	198,4	73,1
Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	157,6	120,1
Elektr mashinalari, apparatlar va asboblari va ularning elektr qismlari	151,4	90,0
Boshqa transport uskunolari	122,7	2,5 m.
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	61,8	114,7
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va asbob-uskunalar va ularning detallari	54,3	87,8
Elektr aloqasi, ovozni yozish va ovozni eshittirish apparaturalari va uskunolari	39,2	39,9
Kanselyariya tovarlari va ma'lumotarni avtomatik ravishda qayta ishlash uchun asbob-uskunalar	6,1	26,8
Metallarni qayta ishlash mashinalari	2,3	89,3
Turli xil tayyor buyumlar	800,0	86,8
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	664,4	85,8
Har xil tayyor buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	82,6	101,4
Poyabzal	14,7	54,8
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	13,1	113,2
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari, matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga o'xshash tikilgan mebel	12,0	125,6
Blokli binolar, kanalizatsiya-suv quvurlari, isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va mahkamlagichlar	7,2	82,2
Yo'l anjomlari, sumkalar va shunga o'xshash konteynerlar	5,0	68,6
Fotografik apparatura, uskuna, ishlatiladigan materiallar va optik buyumlar	0,9	46,1
Boshqa tovarlar	5 831,9	102,9
Oltin, monetar bo'lmagan (rudalari va konsentratlaridan tashqari)	5 793,2	102,8

O'zbekiston tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda – tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda – tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida MDH mamlakatlariga eksportning ulushi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,6 % ga kamaygan.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI


(yanvar-sentabr, ulushi % da, hajmi mln AQSH)



2024- yil yanvar-sentabr oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Rossiya, XXR, Qozog'iston, Turkiya, Afg'oniston, Fransiya va Qirg'iz Respublikasi kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 39,8 % ni tashkil etdi.



RESPUBLIKA EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-sentabr)






O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O‘SISH SUR‘ATLARI (yanvar-sentabr)

Davlatlar	Mln AQSH dollari		O‘shish sur‘ati, % da		Egallab turgan o‘rni	
	2023-y.	2024-y.	2023-y.	2024-y.	2023-y.	2024-y.
Rossiya	2 326,6	2 769,7	105,0	119,0	1	1
XXR	1 855,5	1 528,3	85,7	82,4	2	2
Qozog‘iston	1 067,0	997,7	105,4	93,5	3	3
Turkiya	1 016,4	845,8	80,0	83,2	4	4
Afg‘oniston	608,7	739,5	117,6	121,5	5	5
Fransiya	307,6	588,5	4,4 m.	191,3	8	6
Qirg‘iz Respublikasi	537,4	403,0	76,5	75,0	6	7
Tojikiston	437,0	371,4	123,8	85,0	7	8
AQSH	101,6	238,4	2,2 m.	2,3 m.	13	9
Pokiston	186,2	228,4	157,1	122,6	10	10
BAA	191,1	179,9	2,4 m.	94,1	9	11
Litva	98,7	151,4	145,8	153,4	17	12
Ozarbajjon	99,0	149,5	104,5	150,9	16	13
Eron	133,7	121,7	109,0	91,0	11	14
Belarus	101,5	119,7	126,6	117,9	14	15
Buyuk Biritaniya	99,3	117,4	157,6	118,2	15	16
Turkmaniston	129,4	87,2	83,5	67,4	12	17
Hindiston	76,4	87,1	2,8 m.	113,9	20	18
Latviya	82,7	80,2	107,8	97,0	18	19
Polsha	77,6	75,9	75,0	97,8	19	20

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI *

(2024- yil yanvar-sentabr, mln AQSH doll.)



Respublika eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Toshkent shahri 20,1 % bilan 3 975,6 mln AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Jizzax viloyati 0,8 % bilan 149,4 mln AQSH dollarini tashkil etdi.

* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport va safarlar bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, tuman va shaharlari bo'yicha taqsimlanmagan.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2024- yil yanvar-sentabr oylarida 1 495,2 ming tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2023- yilning mos davriga nisbatan 11,8 % yoki 157,2 ming tonnaga ko'paydi.

2024- yil yanvar-sentabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 1 045,5 mln AQSH dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi. Bu ko'rsatkich 2023- yilning mos davriga nisbatan 25,8 % ga ko'paydi va jami eksportdagi ulushi 5,3 % ni tashkil etdi.

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Rossiya (44,7 %), Qozog'iston (14,1 %), Pokiston (14,1 %) hamda Afg'oniston (7,3 %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.












MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

(2024- yil yanvar-sentabr, o'zgarish sur'atlari, qiymatga nisbatan)

<p>Uzum</p> <p>96,0 mln AQSH dollari</p> <p>108,7 ming tonna</p> <p>51,0 % ↑</p>	<p>Karam</p> <p>43,0 mln AQSH dollari</p> <p>163,3 ming tonna</p> <p>2,0 m. ↑</p>	<p>Piyoz</p> <p>60,1 mln AQSH dollari</p> <p>308,8 ming tonna</p> <p>13,6 % ↑</p>	<p>Gilos</p> <p>70,3 mln AQSH dollari</p> <p>32,2 ming tonna</p> <p>33,0 % ↑</p>
<p>Uzum quritilgan</p> <p>34,7 mln AQSH dollari</p> <p>23,7 ming tonna</p> <p>- 26,3 % ↓</p>	<p>O'rik</p> <p>62,3 mln AQSH dollari</p> <p>64,8 ming tonna</p> <p>52,9 % ↑</p>	<p>No'xat</p> <p>3,6 mln AQSH dollari</p> <p>15,2 ming tonna</p> <p>11,3 m. ↑</p>	<p>Olxo'ri quritilgan</p> <p>21,3 mln AQSH dollari</p> <p>14,9 ming tonna</p> <p>- 35,1 % ↓</p>
<p>Olxo'ri</p> <p>25,9 mln AQSH dollari</p> <p>32,3 ming tonna</p> <p>18,9 % ↑</p>	<p>SHAftoli</p> <p>96,5 mln AQSH dollari</p> <p>103,0 ming tonna</p> <p>43,6 % ↑</p>	<p>Yeryong'oq</p> <p>10,8 mln AQSH dollari</p> <p>6,5 ming tonna</p> <p>2,5 m. ↑</p>	<p>Sabizi</p> <p>27,0 mln AQSH dollari</p> <p>112,0 ming tonna</p> <p>89,7 % ↑</p>



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2024- yil yanvar-sentabr)

Davlatlar	Ming tonna	MIn AQSH dollari	Ulushi, % da *
 Rossiya	618,9	467,3	44,7
 Qozog'iston	433,6	147,7	14,1
 Pokiston	100,9	147,3	14,1
 Afg'oniston	45,4	75,9	7,3
 Qirg'iz Respublikasi	121,8	44,6	4,3
 XXR	51,0	42,6	4,1
 Turkiya	14,9	27,1	2,6
 Belarus	14,9	11,9	1,1
 Ozarbayjon	6,7	11,6	1,1
 Gruziya	7,7	7,7	0,7
 Iroq	16,8	7,6	0,7
 Ukraina	8,6	6,7	0,6
 Eron	5,5	6,0	0,6
 BAA	10,7	5,5	0,5
 Germaniya	3,3	4,7	0,4
 Boshqa davlatlar	34,6	31,2	3,0

* qiymat ifodasidan

2024- yil yanvar-sentabr oylarida meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Rossiyaga to'g'ri keldi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining 44,7 % ini), bu esa Pokiston eksport hajmiga nisbatan 3,2 barobarga ko'p.



TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI

So‘nggi yillarda yengil sanoatda yuqori qo‘shilgan qiymatdagi mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlanib bormoqda. Yengil sanoat iqtisodiy jihatdan O‘zbekiston uchun muhim soha bo‘lgani holda, aholi bandligining yuqori darajasini, shuningdek, sanoat salohiyatiga hamda davlatimizning xalqaro nufuziga hissa qo‘shilishini ta‘minlaydi.

To‘qimachilik mahsulotlarining eksporti hajmlarining oshishini bevosita paxta xomashyosini o‘rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo‘shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasi sifatida qarash mumkin.

Xususan, 2024- yil yanvar-sentabr oylari yakuni bo‘yicha 2 213,6 mln AQSH dollarilik to‘qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 11,2 % ini tashkil etib, o‘tgan yilga nisbatan 6,1 % ga kamaydi.

Eksport qilingan to‘qimachilik mahsulotlari tarkibida ip kalava (44,0 %), tayyor to‘qimachilik mahsulotlari (38,8 %) asosiy ulushni egallagan. 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida to‘qimachilik mahsulotlari dunyoning 56 ta davlatiga eksport qilindi.



TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI

2024- yil yanvar-sentabr, mln AQSH dollari, % da.



2 213,6 (2023 y.: 2 357,2)

Jami



975,1 (942,5)

Ip kalava



857,9 (956,0)

Tayyor to‘qimachilik mahsulotlari



226,6 (251,3)

Trikotaj mato



106,9 (131,2)

Gazlamalar




30,2 (46,5)

Paypoq mahsulotlari

Mamlakatimizda yangi ishlab chiqarish texnologiyalari va zamonaviy uskunalardan keng foydalanish, sohada sifat menejmenti tizimining joriy etilishi natijasida mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu, o'z navbatida, tayyor mahsulotlarga jahon bozorlarida o'z o'rnini topish imkonini beradi.



XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI (2024- yil yanvar-sentabr, mln AQSH doll.)



Xizmatlar eksporti hajmi 5 014,1 mln AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining 25,4 % ini tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 29,6 % ga ko'paydi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi safarlar (turizm) (48,3 %), transport (36,5 %), telekommunikatsiya, kompyuter va axborot (8,3 %) va boshqa tadbirkorlik bilan bog'liq xizmatlar (2,9 %) hissasiga to'g'ri kelgan. Shu bilan birga, boshqa xizmatlar (4,0 %)ni tashkil etib, tarkibida eng yuqori ulushlar sug'urta va pensiya ta'minoti xizmatlari (1,1 %), moliyaviy xizmatlar (1,0 %) qurilish xizmatlari (0,6 %) hissasiga to'g'ri keldi.

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida import hajmi 28 432,4 mln AQSH dollariga yetdi va 2023- yilning mos davriga nisbatan 5,2 % ga ko‘paydi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (35,5 %), sanoat tovarlari (15,1 %) hamda kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar (12,2 %) hisobiga to‘g‘ri keldi.



XSST BO‘YICHA IMPORT TARKIBI

(2024- yil yanvar-sentabr)



9,3 %

1. Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar



0,6 %

2. Ichimliklar va tamaki



2,8 %

3. Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari



10,6 %

4. Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar



0,9 %

5. Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va muylar



12,2 %

6. Kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar



15,1 %

7. Sanoat tovarlari



35,5 %

8. Mashinalar va transport asbob-uskunalari



3,7 %

9. Turli xil tayyor buyumlar



0,2 %

10. Boshqa tovarlar



9,0 %

11. Xizmatlar

Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko‘ra, 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 1 417,7 mln AQSH dollariga ko‘paydi va 28 432,4 mln AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 2 570,8 mln AQSH dollariga yetdi.

**Tovarlar tashqi savdosi statistik ko‘rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (TIF TN) bilan birgalikda, BMTning Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (XSST) ishlatiladi. Bu o‘z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarini XSST bo‘yicha kodlashirish, TIF TN va XSST o‘rtasida o‘tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.*



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING XSST BO'YICHA IMPORTI TARKIBI *(yanvar-sentabr, yillar kesimida)*

XSST tarkibi	Mln AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nis- batan. % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Jami import	27 014,8	28 432,4	121,2	105,2	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	2 542,5	2 649,0	107,6	104,2	9,4	9,3
Ichimliklar va tamaki	141,3	175,3	138,9	124,0	0,5	0,6
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	831,0	801,0	87,2	96,4	3,1	2,8
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	1 899,6	3 023,4	145,0	159,2	7,0	10,6
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	308,2	251,0	135,2	81,4	1,1	0,9
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	3 586,0	3 474,8	113,8	96,9	13,3	12,2
Sanoat tovarlari	4 491,1	4 300,2	105,7	95,7	16,6	15,1
Mashinalar va transport asbob- uskunalari	10 315,2	10 084,3	145,4	97,8	38,2	35,5
Turli xil tayyor buyumlar	1 028,3	1 056,3	113,8	102,7	3,8	3,7
Boshqa tovarlar	63,7	46,3	162,2	72,8	0,2	0,2
Xizmatlar	1 807,9	2 570,8	95,8	142,2	6,7	9,0

XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2024- yil yanvar-sentabr)

 XSST bo'limi nomi	Mln AQSH dollari	2023- yilning mos davriga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	2 649,0	104,2
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	652,5	76,9
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	479,0	108,3
Go'sht va go'sht mahsulotlari	341,8	143,5
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	296,4	113,7
Sabzavotlar va mevalar	286,9	124,0
Hayvonlar uchun oзуqalar	208,1	126,7
Sut mahsulotlari va qush tuxumlari	165,4	106,4
Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	109,9	92,5
Tirik hayvonlar	82,5	131,5
Baliq (dengiz sutemizuvchilari bo'lmagan), qisqichbaqasimonlar, mollyuskalar va suvda suzuvchi umurtqasizlar va yarim tayyor mahsulotlar	26,4	127,5
Ichimliklar va tamaki	175,3	124,0
Ichimliklar	128,9	134,2
Tamaki va tamaki mahsulotlari	46,3	102,3
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	801,0	96,4
Probka va yog'och-taxtalar	321,6	103,5
Metall rudalari va metall parchalari	219,3	90,9
O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo	60,6	100,8
Yog'li urug'lar va yog'li mevalar	53,1	92,0
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	46,0	104,5
Qog'oz massasi va makulatura	39,5	103,2
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	35,2	68,5
Tabiiy kauchuk	25,3	92,6
Terilar, teri xomashyosi va mo'yna, ishlov berilmagan	0,4	195,0
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	3 023,4	159,2
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	1 532,8	129,3
Tabiiy yoki sun'iy gaz	1 278,3	262,0
Ko'mir, koks va briketlar	115,9	83,3
Elektr toki	96,4	110,4
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	251,0	81,4
O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	215,5	82,8
Hayvonlar va o'simliklar moylari va yog'lari, qayta ishlangan; hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan mumlar	34,5	73,3
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	3 474,8	96,9
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	1 283,9	115,3
Birlamchi shakldagi plastmassalar	585,2	85,6
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	484,7	105,0
Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari; hojatxona preparatlari, polirovkalash va yuvish vositalari	387,5	103,7
Organik kimyo moddalari	207,8	87,2
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	203,2	77,5
Noorganik kimyo moddalari	201,9	87,8
Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	74,9	91,8
O'g'itlar	45,8	32,3


XSST bo'limi nomi	Mln AQSH dollari	2023- yilning mos davriga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari	4 300,2	95,7
Cho'yan va po'lat	1 867,4	104,5
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	590,1	94,0
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	417,6	83,7
Rezina buyumlari	313,2	78,9
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	297,9	81,4
Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	282,6	103,8
Rangli metallar	272,8	109,9
Noruda qazilmalardan olingan mahsulotlar	257,2	87,9
Teri, teridan tayyorlangan buyumlar, mo'yna	1,5	102,1
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	10 084,3	97,8
Avtomobillar (havo podushkalaridagi transport vositalari ham) shu jumladan:	2 360,2	74,8
<i>asosan yo'lovchilarni tashish uchun mo'ljallangan dvigatelli avtomobillar va boshqa transport vositalari</i>	986,1	80,6
<i>avtomobillarning qismlari va anjomlari</i>	915,0	88,0
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	1 866,6	89,7
Elektr mashinalari, apparatlari va jihozlari va ularning elektr qismlari	1 497,8	137,5
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	1 490,2	96,4
Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	838,6	136,3
Elektr aloqasi, ovozni yozish va ovozni eshittirish apparaturalari va uskunolari	767,9	112,2
Boshqa transport uskunolari	667,9	106,6
<i>shu jumladan: samolyotlar va uchish apparatlari, mexanik (vertolyotlardan tashqari)</i>	500,6	89,5
Kanselyariya mashinalari va ma'lumotarni avtomatik ravishda qayta ishlash uchun asbob-uskunalar	370,0	116,9
Metallarni qayta ishlash mashinalari	225,1	110,3
	1 056,3	102,7
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	342,7	105,2
Boshqa joyda tasniflanmagan har xil tayyor buyumlar	332,0	94,9
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	116,5	89,5
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga oxshash tikilgan mebel	109,9	100,0
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	91,3	163,0
Poyabzal	30,6	118,6
Yo'l anjomlari, sumkalar va shunga o'xshash konteynerlar	16,8	125,2
Fotografik apparatura, uskuna, ishlatiladigan materiallar va optik buyumlar, soatlar	16,5	95,0

Tashqi savdo statistikasini yuritish metodologiyasiga ko'ra, tashqi savdo statistikasiga tranzit tovarlar, mamlakatga vaqtincha olib kirilgan yoki undan vaqtincha olib chiqilayotgan tovarlar kiritilmasligi nazarda tutilgan.

2024- yil yanvar-sentabr natijalariga ko'ra MDH mamlakatlaridan import ulushi 36,0 % ni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 3,0 % ga ko'paydi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-sentabr, ulushi % da, hajmi mln AQSH dollarida)



2024- yil yanvar-sentabr oylarida O'zbekiston Respublikasi 166 ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (XXR, Rossiya, Qozog'iston, Koreya Respublikasi, Turkiya, Turkmaniston va Germaniya) jami importning 2/3 qismini tashkil etdi.



RESPUBLIKA IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-sentabr)






O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O‘SISH SUR‘ATLARI (yanvar-sentabr)

Davlatlar	Mln AQSH dollari		O‘shish sur‘ati, % da		Umumiy hajmdagi o‘rni	
	2023- y.	2024- y.	2023- y.	2024- y.	2023- y.	2024- y.
XXR	7 599,5	7 505,9	158,5	98,8	1	1
Rossiya	4 707,9	5 894,7	106,0	125,2	2	2
Qozog‘iston	2 162,8	2 012,3	95,5	93,0	3	3
Koreya Respublikasi	1 666,4	1 449,3	93,2	87,0	4	4
Turkiya	1 334,1	1 333,4	105,8	99,9	5	5
Germaniya	723,2	793,9	101,3	109,8	6	6
Turkmaniston	700,9	780,6	114,0	111,4	7	7
Hindiston	431,4	584,7	90,7	135,6	9	8
AQSH	340,0	433,8	117,5	127,6	13	9
Belarus	348,0	387,5	122,8	111,3	12	10
Braziliya	551,7	376,8	137,5	68,3	8	11
Litva	411,9	341,4	136,8	82,9	10	12
Chexiya	241,1	309,8	2,5 m.	128,5	18	13
BAA	284,7	292,3	110,2	102,7	15	14
Italiya	326,8	275,8	129,9	84,4	14	15
Fransiya	351,2	270,8	2,2 m.	77,1	11	16
Yaponiya	155,0	251,2	103,1	162,1	23	17
Eron	244,6	237,5	110,5	97,1	17	18
Polsha	231,8	202,4	166,6	87,3	19	19
Shveysariya	246,8	191,6	145,1	77,6	16	20



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI HAJMI (2024- yil yanvar-sentabr, mln AQSH doll.)




Respublika importi tarkibida eng yuqori ulushni Toshkent shahri 51,8 % bilan 14 718,5 mln AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Surxondaryo viloyati 0,4 % bilan 105,1 mln AQSH dollarini tashkil etdi.



XIZMATLAR IMPORTI TARKIBI

(2024- yil yanvar-sentabr, mln AQSH dollarida)



2024- yilning yanvar-sentabr oyi yakuni bilan xizmatlar importi hajmi 2 570,8 mln AQSH dollarini yoki jami import hajmining 9,0 % ini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 42,2 % ga ko'paydi.


Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi boshqa safarlar (turizm xizmatlari) (52,8 %), transport xizmatlari (21,4 %), telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari (9,4 %) va boshqa tadbirkorlik bilan bog'liq xizmatlar (6,0 %)ga tegishli bo'ldi.

Shuningdek, boshqa xizmatlar ulushi jami xizmatlar importining 10,4 % ini tashkil etib, uning tarkibida yuqori ulushlarni boshqa tadbirkorlik bilan bog'liq xizmatlar (4,1 %), texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash bo'yicha xizmatlar (2,8 %), sug'urta va pensiya ta'minoti xizmatlari (1,4 %) va boshqalar tashkil etdi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORTI

2024- yil yanvar-sentabr oylarida import tarkibida sanoat mahsulotlari tovarlari hajmi 4 300,2 mln AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4,3 % ga kamaydi hamda importning umumiy hajmidagi ulushi 15,1 % ga yetdi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2024- yil yanvar-sentabr)

1 520,7 mln AQSH doll.
Ulushi – 35,4 %



Rossiya

1 394,3 mln AQSH
doll. *Ulushi – 32,4 %*



XXR

523,1 mln AQSH doll.
Ulushi – 12,2 %



Qozog'iston

217,6 mln AQSH doll.
Ulushi – 5,1 %



Turkiya

109,3 mln AQSH
doll. *Ulushi – 2,5 %*



Koreya
Respublikasi

Sanoat mahsulotlari importi asosan cho'yan yoki legirlanmagan po'lat (1 867,4 mln AQSH dollari), metallardan tayyorlangan buyumlar (590,1 mln AQSH dollari), yigirilgan ip, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar (417,6 mln AQSH dollari), rezina buyumlari (313,2 mln AQSH dollari) va boshqalardan tashkil topgan.